



PEDAGOGNING O'QUVCHILARDAGI ILMIY VA IJODIY QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Toshpo'latova Munisa Shahriyor qizi

TerDPI 1-kurs talabasi

Abduhalimova. Y.N.

Ilmiy rahbar:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10141032>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-November 2023 yil

Ma'qullandi: 13- November 2023 yil

Nashr qilindi: 16-November 2023 yil

KEY WORDS

Qobiliyat, kommunikativ faoliyat, pedagogik mahorat, innovatsion texnologiyalar, shakllantiruvchi omillar

ABSTRACT

ushbu maqolada pedagoglarning o'quvchilardagi ilmiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali usullardan foydalanish va bu usullarning mohiyatini ochib berish haqida mulohazalar yuritilgan

O'qituvchining eng muhim sifatlaridan biri uning o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikda ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil qilishi, ular bilan qizg'in muloqot qila olishi va ularga jonkuyar, mehribon rahbar bo'lishidir. Pedagogik-psixologik yo'nalishlarda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida, o'qituvchilarning sermahsul pedagogik faoliyatni amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan kommunikativ qobiliyati to'g'risida ko'plab fikr va mulohazalar yuritilgan. O'qituvchi o'z kasbiga qiziqmasa, o'quvchilarga nisbatan mehr-muhabbati bo'lmasa, ular bilan qizg'in muloqot qila olish qobiliyati, ya'ni kommunikativ xususiyatlari rivojlanmaydi. Uzoq yillar davomida pedagogika sohasida olib borilgan tajribalar shundan dalolat beradiki, kommunikativ faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun, o'qituvchining integral fanlar asoslarini va o'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini chuqur bilishi yetarli emas. Zero, u bilim hamda amaliy ko'nikma va malakalarini o'quvchilarga faqat bevosita jonli muloqot vositasida bera oladi. O'qituvchi va o'quvchilarning jonli muloqoti, ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatning muhim sharti va mazmuni sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchining kommunikativ faoliyati maqsadli faoliyatga nisbatan ko'pincha ikkilamchi xarakterga ega bo'ladi, pedagogik mehnatning o'ziga xosligi ham aynan kommunikativ faoliyat uning asosini tashkil etishidan iborat ekanligidadir. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida muntazam pedagogik ta'sir o'tkazish metodlari bilan ishlaydi, jumladan, dars jarayonida yangi materialni tushuntirishda, o'quvchiga aybi uchun dashnom berish jarayonida qator metodlardan foydalanishadi. Pedagogik faoliyatda kommunikativ vazifalarning ahamiyati ko'p qirrali ekanligini o'qituvchi yaxshi his qiladi. Ta'lim-tarbiya davomida o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlik, o'quvchilarni qandaydir jamoaviy ishlarni bajarishga uyushtirish, jamoa a'zolarining o'zaro munosabatlarini shakllantirish, maqbul emotsional mikroiklimni ta'minlash kabi kommunikativ vazifalarning pedagogik

muammolarni hal qilishda yordam beradigan masalalari ro'yxatini hali uzoq davom ettirish mumkin. O'qituvchining kommunikativ muloqoti ko'plab funksiyalarga ega bo'lgan tizimdir:

-axborot-kommunikativ

-regulyatsion-kommunikativ

-affektiv-kommunikativ

O'qituvchi ta'lim jarayonida o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Hozirgi kunda o'qituvchining pedagogik mahoratida "Bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash" kabi didaktik qonuniyatlar ta'lim berishning muhim kategoriyalari sifatida e'tirof etilgan. Shaxsga ta'lim-tarbiya berish nihoyatda murakkab jarayon, qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk arboblari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uni tashkil etish mazmuni va nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilovchi muhim ahamiyatga molik bo'lgan omil ekanligi ta'kidlanadi. Har bir o'qituvchining o'ziga xos bo'lgan yutuqlari va shu bilan bir qatorda kamchiliklari ham bor. Agar pedagoglar o'quv jarayonida ana shu individual xususiyatlarni hisobga olmasalar, har qancha unumli metodlardan foydalansa ham o'quv jarayonida yaxshi natijalarga erisha olmaydilar. O'quvchilarning yangi materiallarni idrok qilishda adabiyotdan she'r yodlash, xotira mashqlaridan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Shuningdek yodlagan o'qigan ma'lumotlarni tushunib, hayotiy ifodasi bilan idrok etisha olsagina samarasi va yodda qolishi samarasi yuqori bo'ladi. Aks holda o'quvchilar bilimida yuzakichilik avj oladi, bunda olingan bilimlar shunchaki yodlab olingan bo'ladi. Bunday bilimlar esa tez unutiladi. Bundan tashqari bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish o'quvchilarda bu bilimlarga nisbatan ma'lum munosabat hosil qilishni, emotsional kechinmalar uyg'otishni ham o'z ichiga oladi. Ma'lumki ta'lim ikki tomonlama xususiyatga ega. Ta'lim jarayonida pedagog yo'naltiruvchi bo'lib maydonga chiqadi va o'quvchilar o'rganish jarayonini kechiradilar.

Hozirgi globallashuv davrda innovatsion texnika va texnologiyalar takomillashgan davrda o'quvchilarning fikrlash doirasi hamda ularning ijodiy qobiliyatlari ham kengayib bormoqda. O'quvchilarning qobiliyatlari va fikrlashlarini rivojlantiruvchi bir qator yangi dasturlar joriy etilmoqda. Masalan: Mental arifmetika san'at va aqlni rivojlantiruvchi dastur. Ushbu dastur yordamida o'quvchilar nafaqat o'qishda muvaffaqiyatga erishadilar, balki hayot motivatsiyasiga ega bo'lib, ijodiy qobiliyatlar kengaymoqda. Mnemonika usuli ham tezkor xotira va ijodiy fikrlash tezligini rivojlantiruvchi dastur. Zamonaviy ota-onalar va o'qituvchilar o'zlariga birinchi navbatda bolani ijodiy rivojlantirish vazifasini qo'yadilar. Bunday qobiliyatlarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Shu sababli, ko'pincha o'quv dasturlarida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asoslangan mashg'ulotlarni tashkil qilish muhim bir jarayon bo'lib hisoblanmoqda. Qobiliyatlarni shakllantirish haqida gapirganda, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini qaysi yoshda rivojlantirish kerakligi masalasiga to'xtalib o'tish kerak. Psixologlarda ijodiy qobiliyatlarini juda erta yoshdan boshlab rivojlantirish kerak degan faraz mavjud. Bu gipoteza fiziologiyada o'z tasdig'ini topadi. Bolalarning miyasi, ayniqsa, tez o'sadi va hayotining birinchi yillarida rivojlanadi. Bu kamolot ya'ni miya hujayralari sonining o'sishi va ular orasidagi anatomik bog'lanishlar mavjud tuzilmalar ishining xilma-xilligi va intensivligiga ham, yangilarning shakllanishiga atrof-muhit tomonidan qanchalik rag'batlantirilishiga bog'liq. Psixologik nuqtai nazaridan, maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi, chunki bu yoshda bolalar o'ta

izlanuvchan, ularda atrofdagi dunyoni o'rganishga intilish katta bo'ladi. Bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun asos bu-birinchi navbatda erkinlikdir. Ota-onalar bolalarini majburlamasliklari kerak. Bu borada muvaffaqiyatga erishish uchun sabr-toqat va muayyan taktika talab etiladi-ota-ona bolaning fikrini tinglashi, har qanday ijodiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirishi kerak. Ota-onalar va o'qituvchilar qiziquvchanlikni rag'batlantirish, ularga bilim berish, turli tadbirlarga jalb qilish orqali bolalar tajribasini kengaytirishga hissa qo'shadilar. Tajriba va bilimlarni to'plash kelajakdagi ijodiy faoliyat uchun zaruriy shartdir. Bundan tashqari, bolalarning fikrlashlari katta yoshdagi bolalarnikiga qaraganda ancha erkindir. Bolalar ijodkorlikni namoyon qilishi uchun ularga ushbu xususiyatlarning barchasi birlashtirilishi kerak. Zamonaviy dunyoda insonning ijodiy qobiliyatlari uning intellektining eng muhim qismi sifatida tan olinishi kerak. Insoniyat tomonidan to'plangan madaniy qadriyatlar odamlarning ijodiy faoliyati natijasidir.

Kelajakda insoniyat jamiyatining qay darajada rivojlanishini yosh avlodning ijodiy salohiyati belgilab beradi. Tarbiyachi pedagoglar taqlid qilish ijodkorlikni shakllantirishning asosiy mexanizmi ekanligini unutmasligi kerak. Bu shuni anglatadiki, bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun unga yaqin odamlar orasida bola o'zini tanitadigan ijodiy shaxs bo'lishi kerak. Bola uchun ijodiy xulq-atvor namunasi sifatida nafaqat ota-onalar, balki boshqa kattalar ham (o'qituvchilar, oila, do'stlari va boshqalar) harakat qilishlari mumkin. Agar, bolalar uchun ota-onalar ko'proq ijodiy xususiyatlarga ega bo'lgan "ideal qahramon" bo'lsa, ayniqsa samarali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pedagogik mahorat. Xoliqov A. 2011. Toshkent
2. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi F.R. Qodirova. 2016
3. Umumiy psixologiya. Ivanov I, Zufarova M. 2008. Toshkent
4. Olloqulova F. U. TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAVSIFI. Tadqiqotlar, 6 (2), 336-339. – 2023.
5. Saxadinova S., Olloqulova F. U. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHILARIDA NUTQ O 'STIRISH VA NUTQ MADANIYATI //Models and methods in modern science. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 98-100.
6. Ruzikulovna, Shabbazova D. "Primary Education Teacher And Student Teaching Activities And System Of Personal Values." European Scholar Journal, vol. 2, no. 7, 2021, pp. 32-33.
7. Abduhalimova, Y. (2023). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KREATIV YONDASHUVINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI. Interpretation and Researches, 2(1).
8. Абдухалимова Ю. (2022). Педагогическая подготовка будущих учителей в воспитании самостоятельно мыслящих, творческих лиц в процессе непрерывного образования. Общество и инновации, 3(8/S), 103-108.
9. Bo 'lajak o 'qituvchilarni kasbiy kompetentlikka tayyorlash hozirgi davrning dolzarb muammosi Y Abduhalimova - TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY ..., 2022
10. Ruzikulovna, S. D. (2021). The importance of personal values of elementary school students in learning. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1711-1715.
11. The Importance of the Steam Program in the Formation of Mathematical Knowledge in Primary Class Students S Mehriniso - Web of Semantic: Universal Journal on Innovative ..., 2023

12. Шаббазова, Д. Р. (2018). АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ. Научные горизонты, (11-1), 350-355.
13. The Reasons for Teaching Fairy Tales in Extracurricular Reading Classes F Hamdamova, YN Abduhalimova - Web of Semantic: Universal Journal on Innovative ..., 2023
14. General Classification of the Didactic Process in Primary Grades G Akmalova, YN Abduhalimova - Web of Semantic: Universal Journal on Innovative ..., 2023
15. Ruzikulovna, S. D. (2021). PRIMARY EDUCATION TEACHER AND STUDENT TEACHING ACTIVITIES AND SYSTEM OF PERSONAL VALUES. European Scholar Journal, 2 (7), 32-33.
16. Xoliqova P. BOSHLANG 'ICH SINF O'QUVCHILARINING ONGLI FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA O'RNI //Interpretation and researches. – 2023. – Т. 1. – №.1.
17. Mahmudova K., Kholikova P. NEW APPROACHES TO TEACHING ENGLISH: GIVE THE PUPILS WHAT THEY WANT! //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2023. – Т. 15. – С. 354-359.

